

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

UMAROV AKMAL AKPARALIYEVICH

**ARRALI JINLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA
UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025 yil

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) технических наук
Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on Technical Sciences

Umarov Akmal Akparaliyevich

Arrali jinlash texnologiyasini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish 3

Умаров Акмал Акпаралиевич

Совершенствование технологии пильного дженирования и повышение его эффективности 31

Umarov Akmal

Improving the technology of saw ginning and increasing its efficiency 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

UMAROV AKMAL AKPARALIYEVICH

**ARRALI JINLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA
UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025 yil

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.DSc/T372 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://namdtu.uz/>) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Axmedxodjayev Xamit Tursunovich

Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxammadiyev Davlat Mustafayevich

Texnika fanlari doktori, professor

Muradov Rustam Muradovich

Texnika fanlari doktori, professor

Djamolov Rustam Kamolidinovich

Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil "03" iyul soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel.: (99869) 228-76-71, faks: (99869) 228-76-75; e-mail: namiei_info@edu.uz. Namangan davlat texnika universiteti 6-binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "20" iyun kuni tarqatildi.
(2025 yil "22" maydagi B7/1-raqamli reestr bayonnomasi).



A.M. Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

Sh.A. Mahsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Ilmiy kotibi, t.f.f.d, dotsent

N.M. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik mahsulotining asosiy xomashyosi paxta tolasining tabiiy xossalarini saqlab qolish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. «Xalqaro Paxta Maslahat Qo‘mitasi»¹ (ICAC) ning 2023-yildagi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha paxta yetishtirish 24,55 mln. tonna atrofida barqaror deb baholanmoqda. Ushbu yilda dunyo bo‘yicha paxta iste‘moli 23,8 mln. tonna atrofida baholangan. Ushbu raqamlar butun dunyo bo‘ylab paxta sanoatida shaffoflikni ta‘minlash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ICAC tomonidan olib borilayotgan tahlilning bir qismidir. ICAC ushbu raqamlarni bozor sharoitlari va ishlab chiqarish haqiqatlarini aks ettirish uchun monitoring qilish va yangilash muhimligi dolzarb bo‘lib qolmoqda va o‘z a‘zo mamlakatlarida paxta ishlab chiqarishda barqarorlik va innovatsiyalardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda paxta tolasiga talabning ortishi o‘z navbatida uning sifati va uni ishlab chiqarish samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borishni talab etadi. Bu borada, jumladan paxta tolasining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy hamda texnologik jihatdan ishonchli va sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi texnologiya va ularni modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. Ayniqsa, jahon paxta tozalash sohasida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash mashinalarini takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosiga ishlov berish jarayonini, texnika va texnologiyasini rivojlantirishga ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish, uskunalarining ixcham, sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini, zamonaviy hamda avtomatlashgan konstruksiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarini yaratish, shuningdek yaratilgan ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish mazkur sohani rivojlantirishning usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tola sifatini oshirish, sodda konstruksiyalardan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalga qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoniga ko‘ra, “O‘zbekistondagi jami paxta maydonlari 1 mln. gektardan iborat bo‘lib, hosildorlik har bir gektariga 590 kg dan to‘g‘ri keladi, 0,59 mln. tonna paxta tolasini ishlab chiqarilgan bo‘lsa, uning iste‘moli esa 0,6 mln. tonnani, eksport hajmi 0,015 mln. tonnani, import hajmi esa 0,004 mln. tonnani tashkil etmoqda”. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish»² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/emailsecretariat@icac.org>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

vazifalar amalga oshirishda, xususan bu borada, tola va chigitning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlash va jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish masalalari muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son Farmoni, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Paxta tolasini chigitdan ajratish texnologiyalarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish hamda tola va chigit sifatini yaxshilashga qaratilgan fundamental tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va kompaniyalari, jumladan, AQSh, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Tojikiston, Xitoy, Turkiya, Bangladesh, Misr va Avstraliya kabi davlatlardagi ilmiy-tadqiqot institutlari va injiniring kompaniyalari tomonidan faol olib borilmoqda. Ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarga AQShdagi American Association for Laboratory Accreditation, North Carolina State University The Nonwovens Institute, Florida State University Textile Testing Lab, Texas Tech University, Fiber & Biopolymer Research Institute, Louisiana State University Cotton Fiber Laboratory, Gaston College, Fiber Innovation Center; Braziliyadagi Institute of Macromolecules Professor Eloisa Mano, Federal University of Pelotas, Federal University of Ceara; Hindistondagi ICAR Central Institute for Cotton Research; Rossiyadagi Volgograd davlat agrar universiteti; Tojikistondagi Qulab texnologiya va innovatsiya menejmenti instituti; Xitoydagi State Key Laboratory of Crop Biology/Agronomy College, Shandong Agricultural University, Taian, Shandong, Heze Academy of Agricultural Sciences; Turkiyadagi Cotton Research Institute; Bangladeshdagi Textile Vocational Institute;

³ <https://a2la.org>; thenonwovensinstitute.com; jim Moran college.fsu.edu/textile-lab; itc.ttu.edu/fbri; lsuagcenter.com; gaston.edu/fic; Passos, A., Neto, R. and Tavares, M. (2020) Solid State NMR Applied to Evaluate Fibers Cotton. *Materials Sciences and Applications*, 11, 591-599. doi:10.4236/msa.2020.118039; Fassihi, A. and Hunter, L. (2016) Application of an Automatic Yarn Dismantler to Track Changes in Cotton Fiber Properties during Full Scale Processing of Cotton into Carded Yarn. *Journal of Natural Fibers*, 13, 555-564. <https://doi.org/10.1080/15440478-2015.1083925>; <https://cicr.org.in/>; <https://cyberleninka.ru/article/n/formalizatsiya-i-analiz-tehnologicheskikh-protsessov-pervichnoy-pererabotki-hlopka-syrtsa/viewer>; <https://cyberleninka.ru/article/n/formalizatsiya-i-analiz-tehnologicheskikh-protsessov-pervichnoy-pererabotki-hlopka-syrtsa/viewer>; <https://www.tut.tj/wp-content/>; <https://www.science-direct.com/science/article/abs/pii/S0926669019302602>; Çoban, Mehmet. (2015). Cotton Production of Turkey & Role of Nazilli Cotton Research Institute; <http://cdb.sreepur.gazipur.gov.bd/en>; http://www.arc.sci.eg/Insts-Labs/Pub_Details.aspx?OrgID=2&PUB_ID=68894&lang=en; <https://www.dpi.nsw.gov.au/dpi/about-us/research-and-development/centres/narrabri-australiancotton-research-institute-acri>; <https://www.niphaindia.com/airseparator.php>; <https://bajajngp.com/>; <https://cherokeefab.com/>; <https://www.lum-mus.com/>; <https://www.continentaleagle.com.au/>; <https://www.sdmj.com.cn/en/cotton-processing.html>; <https://www.china-lebon.com/95.html>; <https://www.export-hub.com/product/highquality-cottonginning-machine-1741.html>

Misrdagi Cotton Research Institute; Avstraliyadagi Narrabri: Australian Cotton Research Institute kabi nufuzli tashkilotlar kiradi. Shuningdek, Hindistondagi Nipha, Bajaj Steel Industries Limited; AQShdagi Cherokee, Lummus Ag Solutions, Continental Eagle Pty Ltd.; Xitoydagi Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co., Ltd., Qingdao Lebon Industry Co., Ltd.; Pokistondagi Haseeb Ramzan Agri Mech Eng Company kabi injiniring kompaniyalari ham ushbu tadqiqotlarga o'z hissasini qo'shmoqda.

Tola ajratish jarayonini yanada rivojlantirish, arrali jin mashinasi elementlari va uning asosiy ishchi qismlarini takomillashtirish hamda sifatli tola olishga qaratilgan mashinaning ishchi qismlarini optimallashtirish bo'yicha jahon miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim yutuqlar qayd etilgan:

To'qimachilik muhandislik institutlari – North Carolina State University, College of Textiles (AQSh); Indian Institute of Technology, Department of Textile and Fibre Engineering (Hindiston); University of Manchester, School of Materials (Buyuk Britaniya) kabi nufuzli ta'lim muassasalarida to'qimachilik sanoati, jumladan, paxtani qayta ishlash va mashinalarni loyihalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi universitetlari va ilmiy markazlari – Texas A&M University, Department of Soil and Crop Sciences (AQSH); Punjab Agricultural University (Hindiston); Central Institute for Research on Cotton Technology (CIRCOT) (Hindiston) kabi muassasalarda ko'pincha paxta yetishtirish va mashinasozlik sohasidagi dasturlar va tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Texnika va politexnika institutlari – National Institute of Technology (NIT); Technical University of Liberec, Faculty of Textile Engineering (Chexiya); Southern Institute of Technology (Yangi Zelandiya) kabi oliy ta'lim muassasalarida paxta texnologiyalari va mashinasozligi bo'yicha ta'lim dasturlari taklif qilinishi mumkin.

Tarmoq tashkilotlari va ilmiy markazlar – Cotton Incorporated (AQSh) – paxta mashinasozligi va to'qimachilikni qayta ishlash sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni amalga oshiradi; The International Cotton Advisory Committee (ICAC) – butun dunyo bo'ylab ilmiy-tadqiqot institutlarini qo'llab-quvvatlaydi; All India Cotton Development Council (Hindiston) – paxta texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi. Ushbu tashkilotlarning faoliyati, asosan, paxta texnologiyasi va mashinasozligini rivojlantirishga qaratilgan.

Dunyoda paxta sanoati va paxta mashinasozligiga ixtisoslashgan institutlarni to'qimachilik muhandisligi, qishloq xo'jaligi muhandisligi va sanoat texnologiyasiga ixtisoslashgan yana ko'p ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar va texnik institutlar mavjud bo'lib, paxtani dastlabki ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: to'laning chigitdan ajratishda arrali jin mashinasi va uning asosiy ishchi qismlarini takomillashtirish va unumdorligini oshirish; tola va chigitning tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonining sanoat darajasida shakllanishiga Amerikalik muhandis Eli Whitney tomonidan 1793 yil yaratilgan birinchi jin mashinasi turtki bo'lgan. Hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarida jarayonning nazariy va amaliy asoslari ishlab

chiqildi, u butun boshli texnologik zanjir sifatida shakllandi va rivojlandi. Amerikalik S. Aslam, N. Soomro, S.E. Hughs, B. Carlos, R.K. Byler, W.S. Anthony, W.D. Mayfield, T.D. Valco, J.R. Williford kabi ixtirochi va olimlar, shuningdek Boldinskiy I.G., Miroshnichenko G.I., Tillayev M.T., Bekmirzayev B.I., Axmedxodjayev X.T., Safarov N.M., Muradov R.M., Yunusov S.Z., Agzamov M., Kort I.D., Davidbayev Kh.K., Yunusov R.F., Ergashev J.S., Usmanov X.S., Kattaxodjayev R.M., Fazildinov S., Maksudov I.T., Azizxodjayev A., Jurayev A., Muxammadiyev D.M., Sarimsakov O.Sh., Azizov Sh.M., Mirzaumidov A.Sh., Saadi F.A. kabi Vatanimiz olimlari nafaqat paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni, balki to'lig'icha paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasining taraqqiyotiga alohida hissa qo'shdilar.

Hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni va mashinalarini takomillashtirishning ayrim masalalarini hal etish, shuningdek arrali jin mashinalarini paxta bilan ta'minlash jarayonini takomillashtirish, arrali jin mashinasini xomashyo bilan ta'minlashni rostlashga qaratilgan bo'lib, ular natijasida paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyasi muayyan darajada rivojlangan, olinayotgan mahsulot sifat va miqdor ko'rsatkichlari yaxshilangan. Shu bilan birga, arrali jin mashinasida xomashyo valigi zichligi darajasiga mos ravishda jarayonni xomashyo bilan ta'minlashni boshqarishning resurstejamkor va paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlash, mashina unumdorligini oshirish, elektroenergiya sarfini kamaytirish imkoniyatini beradigan konstruksiyani yaratish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №A-OT-2021-148 «Arrali jin ishchi qismlarining samarali konstruksiyasini yaratish» (2021-2022) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi arrali jin mashinasining samaradorligini oshirish va xomashyo valigi zichligini optimallashtirish orqali energiya tejamkorligini ta'minlash va paxta tolasini sifatini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tezlatkich parametrlarining tola ajratish sifatiga ta'sirini o'rganish;

pnevmatik tizimlar boshqaruvining energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish;

arrali jinlash jarayonida havo oqimi taqsimotini nazariy va eksperimental tahlil qilish;

avtomatlashtirish elementlarini joriy etish orqali jinlash jarayoni samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida DP seriyadagi arrali jin mashinalari olingan.

Tadqiqotning predmetini arrali jin mashinasi ishchi kamerasidagi xomashyo valigi zichligini optimallashtirish, tezlatkichning ta'siri va pnevmatik tizimni boshqarishni takomillashtirish jarayonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, eksperimental tadqiqotlar, matematik modellashtirish, statistik ishlov berish, sanoat sharoitida sinovlar kabi asosiy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arrali jin ishchi kamerasidagi xomashyo valigi optimal zichlik darajasini ta'minlovchi yangi nazariy modellari ishlab chiqilgan, hamda taklif etilayotgan tezlatkichlarning mustahkamlik va tebranish parametrlarini hisoblash orqali ularning samaradorligi oshirilgan;

tezlatkich elektromotorining tok kuchi va arrali jin xomashyo valigining zichligiga bog'liqligi asosida tezlatkich elektromotori tok kuchining ratsional parametrlari aniqlangan;

tezlatkich elektromotori tok kuchiga ko'ra arrali jinga xomashyo uzatish miqdorini boshqaruvchi texnologiya ishlab chiqilgan va arrali jin ishchi kamerasidagi xomashyo valigi zichligiga bog'liq holda xomashyo bilan ta'minlashning avtomatik rostdash uskunasini yaratilgan;

xomashyo valigining arrali silindr ta'siridagi holatlarini modellashtirish orqali arrali silindr tezligini boshqarish usuli yaratilgan, hamda arra diametri, aylanish chastotasi va mashina unumdorligiga bog'liqligi asosida silindr aylanish chastotasini avtomatik rostdash uskunasini yaratilgan;

ishchi kamerani ko'tarish-tushirish uchun zarur kuchning o'zgarish dinamikasi aniqlangan va energiyani tejash maqsadida pnevmosilindrni staninaga optimal o'rnatish joyi aniqlangan, hamda xomashyo valigi zichligini optimal darajada saqlash uchun pnevmatik yuritma asosida ko'tarish-tushirish qurilmasi takomillashtirilgan;

arrali jinlar batareyasida tola yechishda havo oqimining taqsimlanishini boshqarish va pnevmatik tizimlarning optimallashtirish usullari ishlab chiqilgan va arrali jinlar batareyasida havo oqimini rostdash orqali tolani yechish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati aniqlangan;

tola yechish jarayonida havo oqimi tezligi va bosimining ratsional parametrlari aniqlangan, hamda markaziy havo quvuridagi statik bosimga ko'ra havo oqimini boshqaradigan tola yechish pnevmotizimi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrali jin mashinasining ish unumdorligi 10% ga oshirilgan, ya'ni soatiga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori ko'paygan;

pnevmatik tizimni optimallashtirish orqali elektr energiya sarfi 10% ga kamaytirildi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga imkon bergan;

jinlashdan so'ng tola tozalashdan keyin tolaning nuqson va iflos aralashmalar ulushi 2,3% dan 1,4% gacha tushirilishi natijasida paxta tolasini sifatining oshganini ko'rsatgan,

elektromotorning yuklanish toki orqali avtomatik ravishda boshqariladigan tizimi ishlab chiqilgan, bu esa mashina ishini yanada barqarorlashtirishga imkon bergan;

har bir arrali jin mashinasi uchun individual havo oqimi ta'minlanishi natijasida energiya tejovchi tizim ishlab chiqilgan, bu esa ortiqcha havo sarfini oldini olgan;

yangi texnologiyalar korxonada sinovdan o'tkazilib, natijalar muvaffaqiyatli bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalar statistik ishlovdan o'tkazilib, $P_D=0,95$ ehtimollik darajasida ishonchliligi tekshirilgani, eksperimental sinovlar sanoat sharoitida o'tkazilib, natijalar amaliy qo'llanilishga

mos ekanligi isbotlangani, olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xomashyo valigi zichligini optimallashtirish bo'yicha nazariy modellar taklif etilishi, jinlash jarayonida havo oqimi ta'sirini modellashtirish va optimallashtirish bo'yicha yangi yondashuv ishlab chiqilishi, pnevmosilindr yordamida ishchi kamera ko'tarish-tushirishni boshqarish usullari takomillashtirilishi, jin mashinalarida havo oqimini teng taqsimlash mexanizmlari ishlab chiqilishi, jinlash jarayonidagi asosiy parametrlarning matematik modellashtirilishi va eksperimental tekshiruvini o'tkazilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning tadqiqot natijalari asosida arrali jin mashinasining ish unumdorligi oshirilgani, pnevmatik tizim optimallashtirilishi natijasida elektr energiya sarfi kamaygani, elektromotorning avtomatik yuklanish nazorati joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini oshirilgani, korxonada tadqiqot natijalari sinovdan o'tkazilgani va ijobiy natijalar qo'lga kiritilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Arrali jinlash texnologiyasini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan arrali jin konstruksiyasiga ("Arrali jin", №FAP 02307); arrali jin ishchi kamerasi konstruksiyasiga ("Arrali jin ishchi kamerasi", №FAP 2413); arrali jin konstruksiyasiga ("Arrali jin", №FAP 02354); avtomatik rostlanuvchi ishchi kamerasi konstruksiyasiga ("Avtomatik rostlanuvchi ishchi kamera", №FAP 02013); arrali jinlarning pnevmatik tizimi konstruksiyasiga ("Arrali jinlarning pnevmatik tizimi", №FAP 2580) foydali modellarga patentlar olingan;

Takomillashtirilgan va samaradorligi oshirilgan arrali jinlash texnologiyasi "Namangan To'qimachi cluster" MChJ ga qarashli "To'raqo'rg'on paxta tozalash" korxonasida ishlab chiqarishga joriy etildi ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2024 yil 10 yanvardagi 02/22-19 son ma'lumotnomasi). Natijada, jin mashinasi ishchi kamerasida xomashyo valigi zichligining bir xilda ushlanishi, tiqilishlarni oldi olinishi, tola yechishda havo sarfi qisqarishi hisobiga tola bo'yicha jinlash unumdorligi o'rtacha 10% ga ortgan, jinlashdan so'ng tolaning nuqson va iflos aralashmalar yig'indisi 0,9 % ga, chigitning mexanik shikastlanishini 0,8 % ga, arrali jinlar batareyasi tola yechish tizimining elektroenergiya sarfi mavjud tizim elektroenergiya sarfidan 10 % ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqolalar, jumladan 16 ta respublika va 7 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 5 ta foydali modelga patent va 2 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 192 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha analitik tahlil**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili o‘tkazilgan va tadqiqot yo‘nalishlari asoslangan. Arrali jin mashinasi ishchi kamerasi takomillashtirishga qaratilgan konstruktiv yechimlar tahlil qilingan, hamda tola ajratish jarayonida xomashyo valigi zichligi va tezligining ahamiyati haqida umumiy ma‘lumotlar keltirilgan. Taklif etilgan tezlatkichlar konstruksiyalari tahlil qilinib, arrali silindr parametrlarini ish unumdorligiga ta‘siri o‘rganilgan. Arrali jin mashinalari ishchi kamerasi ko‘tarish-tushirish mexanizmlari va arrali jin mashinalarida tolani ajratishdan yechish bo‘yicha analitik tahlil o‘tkazilgan. Arrali jinlash jarayonida unumdorlik, xomashyo valigi zichligi va ishlab chiqarilayotgan tola va chigit sifatining o‘zaro bog‘lanishi asoslab berilgan.

Mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarning tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi: tola ajratishning unumdorligi, tola va chigitning sifatini belgilovchi asosiy omillar xomashyo valigining parametrlariga bog‘liq bo‘lib, ularning eng ahamiyatli xomashyo valigining zichligidir; xomashyo valigining zichligi asosan ikki omil – ta‘minlash hamda tola va chigitni ishchi kameradan chiqarib yuborish ko‘rsatkichlari orasidagi dinamik muvozanatning holati bilan belgilanadi; xomashyo valigi zichligini rostdashni takomillashtirish turli konstruksiyadagi tezlatkichlarni qo‘llash kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda; ta‘minlagich tezligini rostdash uchun rostdashning birtekisligi, mexanik jihatdan soddaligi va eng muhimi elektromotor mexanik xarakteristikasining mos kelishi kabi talablarga faqat tok chastotasini o‘zgartirib rostdash usuli to‘liq javob beradi; ko‘rib o‘tilgan barcha talablarga to‘la javob beraoladigan rostdash tizimini yaratish imkoniyati vujudga kelgan.


Dissertatsiyaning “**Arrali jinlash texnologiyasini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiqi**” deb nomlangan ikkinchi bobida tola ajratish texnologik jarayonini boshqarishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq qilingan.

Arrali jin mashinasi ishchi kamerada paxta tolalarining ajralishi omillari orasida arrali silindrning aylanish chastotasi muhim. Bu parametr xomashyo valigining zichligi va unumdorlikka ta‘sir etadi. Xomashyo valigining zichligi ρ_{XAV} uning massasi m_{XAV} ning ishchi kamera hajmi $V_{i.k.}$ ga nisbati orqali aniqlanadi:

$$\rho_{XAV} = \frac{m_{XAV}}{V_{i.k.}}, \text{ kg/m}^3. \quad (1)$$

bu yerda: ρ_{XAV} – xomashyo valigining zichligi, kg/m^3 ; m_{XAV} – xomashyo valigining massasi, kg ; $V_{i.k.}$ – ishchi kameraning hajmi, m^3 .

Arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} (ayl/min) mashina unumdorligiga bevosita ta'sir qiladi. Tezlik oshishi xomashyo bilan ta'sirlashuvni tezlashtiradi va ko'proq tolani ajratishga olib keladi. Unumdorlik aylanish chastotasiga to'g'ri proporsional, ammo tezlikning ortishi mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun jinlash jarayonining boshqa parametrlarini ham moslashtirish kerak.



1-rasm. Xomashyo valigi zichligi ρ_{XAV} ni aniqlash sxemasi

Mahsulotning kameradan chiqish tezligi oshganda, ta'minlash oqimi o'zgarmasa, vaqt o'tishi bilan ishchi kameradagi xomashyo valigining massasi va xomashyo valigining zichligi kamayadi. Ishchi kameradagi xomashyo valigining massasi m_{XAV} ikki omilga bog'liq (1-rasm): ishchi kameraga paxtaning kirish massaviy oqim tezligi Q_{kir} (kg/min) va ishchi kameradan mahsulotlarning chiqish massaviy oqim tezligi Q_{chiq} (kg/min):

$$Q_{chiq} = Q_{1chiq} + Q_{2chiq}$$

bu yerda: Q_{1chiq} – tolaning chiqish massaviy oqim tezligi, kg/min ; Q_{2chiq} – chigitning chiqish massaviy oqim tezligi, kg/min .

Ko'rib chiqilayotgan jarayon vaqtini t deb belgilaymiz. Shu holda, t vaqt davomida ishchi kameraga kirayotgan paxta massasi va chiqayotgan mahsulotlar massasi quyidagicha ifodalanadi:

$$m_{kir} = Q_{kir} \cdot t. \quad (2)$$

$$m_{chiq} = Q_{chiq} \cdot t. \quad (3)$$

Ishchi kameradagi shu ondagi xomashyo valigining massasi:

$$m_{XAV} = m_{kir} - m_{chiq}. \quad (4)$$

Yoki (2) va (3) larni (4) ga quysak:

$$m_{XAV} = t \cdot (Q_{kir} - Q_{chiq}) \quad (5)$$

Ishchi kameradan mahsulotlarning chiqish massaviy oqim tezligi Q_{chiq} arrali silindr tezligi n_{arra} ga to'g'ri proporsional ravishda o'zgaradi:

$$Q_{chiq} = k \cdot n_{arra} \quad (6)$$

bu yerda: k – arra diametri, kamera konstruksiyasi va boshqa shartlarga bog'liq bo'lgan proporsionallik koeffitsiyenti.


(6) tenglamani (5) tenglamaga qo'yamiz:

$$m_{XAV} = t \cdot (Q_{kir} - (k \cdot n_{arra})). \quad (7)$$

Endi bu tenglamani zichlik formulasi (1) ga qo'yamiz:

$$\rho_{XAV} = \frac{t \cdot (Q_{kir} - (k \cdot n_{arra}))}{V_{i.k.}} \text{ kg/m}^3. \quad (8)$$

Xomashyo valigining o'zgarmas zichligini ta'minlash maqsadida arrali jin mashinasi ishchi kamerasi markazida tezlatkich o'rnatish tavsiya etildi (2-rasm). Tezlatkich xomashyo valigi zichligini boshqarish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Tezlatkich tezligi n_{tezl} ortishi bilan xomashyo valigi zichligi ρ_{XAV} ni aniqlash sxemasi

Xomashyo valigining zichligi ρ_{XAV} (1) dan, massasi esa (5) tenglamadan topiladi. Mahsulotni chiqish massaviy oqim tezligi:

$$Q_{chiq} = k_2 \cdot n_{arra} + k_1 \cdot n_{tezl} \quad (9)$$

Bunda Q_{chiq} ikki tashkil etuvchidan iborat: arrali silindr aylanishi hisobiga mahsulotni chiqish massaviy oqim tezligi $k_2 \cdot n_{arra}$, k_2 – o'zgarmas koeffitsiyent; tezlatkich aylanishi hisobiga mahsulotni chiqish massaviy oqim tezligi $k_1 \cdot n_{tezl}$, k_1 – tezlatkich konstruksiyasi va samaradorligiga bog'liq koeffitsiyent.

(9) ni (5) tenglamaga qo'yamiz:

$$m_{XAV} = t \cdot (Q_{kir} - (k_2 \cdot n_{arra} + k_1 \cdot n_{tezl})) \quad (10)$$

Arrali jin mashinasi unumdorligi $P_{a.j.}$ ni mahsulotni chiqish massaviy oqim tezligi orqali topamiz $P_{a.j.} = Q_{chiq}$:

$$P_{a.j.} = k_2 \cdot n_{arra} + k_1 \cdot n_{tezl} \quad (11)$$

Arrali silindr n_{arra} va tezlatkichning n_{tezl} aylanish chastotalari o'rtasidagi muvozanatni saqlash xomashyo valigi zichligi ρ_{XAV} ni optimallashtiradi va mashina samaradorligini ta'minlaydi. Ishchi kameradan mahsulotning chiqish massaviy oqim tezligi Q_{chiq} arrali silindr n_{arra} va tezlatkich n_{tezl} tezliklari bilan bog'liq:

$$Q_{chiq} = k_4 \cdot n_{arra} + k_3 \cdot n_{tezl} \quad (12)$$

Xomashyo valigi zichligi ρ_{XAV} ni doimiy saqlash uchun ishchi kameradagi xomashyo valigi massasi m_{XAV} o'zgarmas bo'lishi zarur. Shunga ko'ra, arrali silindr tezligi n_{arra} oshganda tezlatkich tezligi n_{tezl} ni kamaytirish kerak.

Ma'lumki, $\rho_{XAV} = m_{XAV} / V_{i.k.}$ va $m_{XAV} = t \cdot (Q_{kir} - Q_{chiq})$, demak

$$\rho_{XAV} = \frac{t \cdot (Q_{kir} - Q_{chiq})}{V_{i.k.}} \quad (13)$$

Agar ρ_{XAV} , t va $V_{i.k.}$ o'zgarmas bo'lsa, $(Q_{kir} - Q_{chiq})$ ham o'zgarmas bo'ladi. Aytaylik, $(Q_{kir} - Q_{chiq}) = C$ bo'lsin. U holda, $Q_{chiq} = Q_{kir} - C$ yoki

$$k_4 \cdot n_{arra} + k_3 \cdot Q_{tezl} = Q_{kir} - C \quad (14)$$

(14) formuladan Q_{tezl} ni ifodalaymiz:

$$Q_{tezl} = \frac{Q_{kir} - C - k_4 \cdot n_{arra}}{k_3} \quad (15)$$

Ya'ni, arrali silindr aylanish chastotasi n_{arra} ortishi bilan tezlatkich aylanish chastotasi n_{tezl} chiziqli kamayishi kerak, va aksincha. Arrali silindrning boshlang'ich aylanish chastotasi n_{arra0} da xomashyo valigi zichligining optimal qiymatini $\rho_{XAV opt}$ ta'minlash uchun tezlatkichning boshlang'ich aylanish chastotasini n_{tezl0} aniqlash zarur.


Tezlatkichning aylanish chastotasi n_{tezl} ni quyidagi tenglama orqali hisoblash mumkin:

$$n_{tezl} = n_{tezl0} - \frac{k_3}{k_4} \cdot (n_{arra} - n_{arra0}) \quad (16)$$

bu yerda: n_{arra} – arrali silindrning joriy aylanish chastotasi, ayl/min; n_{arra0} – arrali silindrning boshlang‘ich aylanish chastotasi, (730) ayl/min; n_{tezl} – tezlatkichning joriy aylanish chastotasi, ayl/min; n_{tezl0} – arrali silindrning boshlang‘ich aylanish chastotasiga mos tezlatkichning boshlang‘ich aylanish chastotasi, (50) ayl/min; k_3, k_4 – tajriba yo‘li bilan aniqlangan koeffitsiyentlar.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki (3-rasm), arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} ortishi bilan tezlatkichning aylanish chastotasi n_{tezl} kamayadi, biroq xomashyo valigi zichligi $\rho_{XAV\ opt} = 320\text{ kg/m}^3$ o‘zgarmaydi.

3-rasm. Arrali silindrning turli aylanish chastotalari n_{arra} da tezlatkichning aylanish chastotasi n_{tezl} ning o‘zgarish grafigi



Endi, paxtaning ishchi kameraga kirish massaviy oqim tezligi Q_{kir} arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} ga proporsional ravishda ortganda, tezlatkich aylanish chastotasi n_{tezl} ning o‘zgarishini tahlil qilamiz. Paxtaning ishchi kameraga kirish massaviy oqim tezligi Q_{kir} arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} ga proporsional ravishda o‘zgaradi. Asosiy maqsadimiz – arrali jin mashinasi ishchi kamerada xomashyo valigining o‘zgarmas optimal zichligini ρ_{XAV} ta‘minlash.

Paxtaning ishchi kameraga proporsional ta‘minlanish massaviy oqim tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$Q_{kir} = k_5 \cdot n_{arra} \quad (17)$$

bu yerda: k_5 – proporsionallik koeffitsiyenti.

Mahsulotning chiqish massaviy oqim tezligi Q_{chiq} (12) ga asosan, xomashyo valigi massasi m_{XAV} (5) hamda xomashyo valigi zichligi ρ_{XAV} (1) yoki (8) orqali aniqlanadi.


Ushbu bog‘liqliklarni hisobga olib, tegishli ifodalarni o‘rniga qo‘ysak:

$$\rho_{XAV} = \frac{t \cdot (k_3 \cdot n_{arra} - (k_2 \cdot n_{arra} + k_1 \cdot n_{tezl}))}{V_{i.k.}}$$

Ma'lumki, ρ_{XAV} , t va $V_{i.k.}$ lar konstantalar, shuning uchun $(k_3 \cdot n_{arra} - (k_2 \cdot n_{arra} + k_1 n_{tezl}))$ ham konstanta bo'ladi.

$k_3 \cdot n_{arra} - (k_2 \cdot n_{arra} + k_1 n_{tezl}) = C_1$ bilan belgilandi, u holda

$$n_{tezl} = \frac{(k_3 - k_2)}{k_1} \cdot n_{arra} - \frac{C_1}{k_1} \quad (18)$$



4-rasm. Tezlatkich aylanish chastotasi n_{tezl} ning arrali silindr aylanish chastotasi n_{arra} ga bog'liqlik grafigi


Tenglamadagi koeffitsiyent k_1 , k_2 , k_3 va o'zgarmas C_1 lar tajriba yo'li bilan aniqlanadi. (18) tenglamada tezlatkichning aylanish chastotasi n_{tezl} arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} ga chiziqli bog'liq ekanligi ko'rsatilgan.

Grafikdan ko'rinib turibdiki (4-rasm), paxtani ishchi kameraga proporsional uzatishda Q_{kir} xomashyo valigining zichligi ρ_{XAV} ni o'zgarmas holda saqlash uchun arrali silindrning aylanish chastotasi n_{arra} ortishi bilan tezlatkichning aylanish chastotasi n_{tezl} ham oshadi.

Tezlatkichning tashqi ta'sirlarga nisbatan mustahkamligi aniqlanishi muhim ahamiyatga ega. Agar tezlatkichning detallari yetarlicha mustahkam bo'lmasa, bu ish jarayonining buzilishiga, tola va chigit sifatining yomonlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Valni yengilroq qilish maqsadida uni qalin devorli quvurdan yasash taklif etildi.

SolidWorks Simulation dasturidan foydalanib, epyuralar olindi (5-rasm). Tadqiqotlar natijasida tezlatkichning maksimal ko'chishi 0,37 mm ni tashkil qilib, ruxsat etilgan me'yorlarda ekanligi aniqlandi. Mustahkamlik zaxirasi koeffitsiyenti eng kichik qiymati 10,1 bo'lib, bu talablarga to'liq javob beradi.

Tezlatkichning ichki diametrini optimallashtirish jarayonida asosan o'lchamlarni optimallashtirishdan foydalaniladi. Ushbu jarayonda detalning statik, kritik chastota, toliqish va boshqa mexanik ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Optimallashtirish jarayonida maqsad materialni o'zgartirmasdan, detalning vaznini minimallashtirishdir.



5-rasm.
Tezlatkichning
ko‘chish epyurasi

SolidWorks dasturidan foydalangan holda, tezlatkichning massasi 34,16 kg ekanligi aniqlandi. Quvurning ichki diametrini optimallashtirish orqali uning mustahkamligini saqlagan holda, vazni kamaytirish maqsad qilingan. Tahlil natijasida ichki radius 40 mm bo‘lgan variant eng optimal ekanligi va kuchlanish me‘yorlari doirasida ekanligi aniqlandi (6-rasm).

Optimal (6)	Ssenariy 1	Ssenariy 2	Ssenariy 3	Ssenariy 4	Ssenariy 5	Ssenariy 6
40 mm	20 mm	25 mm	30 mm	35 mm	40 mm	45 mm
60,887 N/mm ²	60,875 N/mm ²	60,875 N/mm ²	60,875 N/mm ²	60,875 N/mm ²	60,887 N/mm²	408,47 N/mm ²
31,44	48,27	45,12	41,26	36,69	31,44	25,47

6-rasm. Optimallashtirish natijalari

Energiya tejamkorligi zamonaviy dolzarb masalalardan biri. Pnevmosilindrlardan foydalanish – energiya tejashning samarali yechimi. Ishchi kamerani ko‘tarish-tushirish mexanizmlarida pnevmosilindrlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Pnevmosilindr mashinada ikki nuqtada mahkamlanadi: ishchi kamera 2 ga shtok uchidagi sharnir 1 yordamida va stanina 3 ga sharnir 4 orqali (7-rasm). Kuch momenti kuchning ta’sir chizig‘idan aylanish o‘qiga tushirilgan perpendikulyar ko‘paytmasiga teng:


$$M_0(F) = \pm F \cdot h \quad (19)$$

Bu yerda: F – pnevmosilindrning ta’sir kuchi, N; h – kuch yelkasi, m.

Harakat boshida pnevmosilindr 5 ning bo‘ylama simmetriya o‘qi ishchi kameraning mahkamlangan nuqtasidan o‘tuvchi urinma ustida yotishi kerak.

Staninaga mahkamlash nuqtasi O_2 ni aniqlash uchun koordinata boshi qilib shtok mahkamlangan nuqta O_1 deb olsak, shu nuqtaning ishchi kamera ko‘tarilib-tushishida arrali silindr 6 dan ajratish uchun yetarli bo‘ladigan mahkamlangan nuqtaning ko‘chishi Δl ga imkon beruvchi pnevmosilindrning uzunligi L ni va unga mos keluvchi kronshteyn 7 balandligi l_1 va sferik nakonechnik 8 uzunligi l_2 yig‘indisini $x - x$ o‘qi bo‘ylab qo‘yish kerak bo‘ladi:

$$O_1O_2 = L + l_1 + l_2. \quad (20)$$



7-rasm. Ishchi kamerani pnevmosilindr yordamida ko‘tarish sxemasi

- 1 – shtok uchidagi sharnir,
- 2 – ishchi kamera,
- 3 – stanina,
- 4 – sharnir,
- 5 – pnevmosilindr,
- 6 – arrali silindr,
- 7 – kronshteyn,
- 8 – sferik nakonechnik

Ishlab chiqarishda aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida koordinatalari aniqlandi. Shtok uzunligi Δl ni kolosnikning ishchi yuzasini arra yoyi bilan kesishish nuqtasi A dan ishchi holatiga kelish nuqtasi A' gacha bo‘lgan masofa Δl_1 ni o‘zgarishidan kelib chiqib tanlanadi. Geometriya nuqtayi nazaridan:

$$\frac{\Delta l_1}{\Delta l} = \frac{h_1}{h}. \quad (21)$$


5DP-130 mashinasida o‘lchash orqali aniqlangan: $h = OO_1 = 800$ mm, $h_1 = 280$ mm, $\Delta l_1 = 70$ mm. Demak:

$$\Delta l = \frac{\Delta l_1 \cdot h}{h_1} = \frac{70 \cdot 800}{280} = 200 \text{ mm.}$$

Tadqiqotlar davomida pnevmosilindrning optimal o‘lchamlari va uni staninaga o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan koordinatalar aniqlandi. Bu ishlab chiqarishda energiya sarfini minimal darajada ushlab turish uchun zarur hisoblanadi.

Arrali jin mashinalarida tolani yechish pnevmotizimida markaziy quvur diametri 400 mm bo‘lgan quvur diametri 280 mm bo‘lgan uchta quvurga bo‘linadi hamda havo oqimini rostdash imkonini beruvchi markaziy va individual drossellar bilan jihozlanadi (8-rasm). Havo oqimining teng taqsimlanishini ta‘minlash uchun drossellar optimal holatda sozlanishi lozim.

Arrali jin mashinalari batareyasi 3 ta jin mashinasidan iborat bo‘lib, ba‘zi holatlarda ulardan birini to‘xtatish zarur bo‘ladi. Bunday holatda, mos individual drosselni ham berkitish tavsiya etiladi. Drosselning yopilishi qolgan arrali jin mashinasi quvurlaridagi havo oqimi bosimi va tezligiga ta‘sir ko‘rsatadi.



8-rasm. Pnevmatizimning havo parametrlarini hisoblash sxemasi

Bitta drosselning yopilishini ko‘rib chiqiladi. Aytaylik, uchta quvur bor va birinchi quvurdagi drossel berkitildi. Birinchi quvurda qarshilik oshadi, havo sarfi Q_1 kamayadi. Havo oqimi tezligi V_1 ham kamayadi. Drosseldan oldingi bosim P_{1-1} oshadi, drosseldan keyingi bosim P_{1-2} pasayadi.

Ikkinchi va uchinchi drossellar ochiq bo‘lganda pnevmotizimdagi umumiy qarshilik kamayadi, havo sarfi Q_1 va Q_2 hamda havo oqimining tezligi V_1 va V_2 ortadi. Drossellardan oldingi bosim P_{2-1} va P_{3-1} hamda drossellardan keyingi bosim P_{2-2} va P_{3-2} nisbatan kamayadi.

Drossellarning yopilishi quvurlardagi tezlik va bosimning ortishiga olib kelib, pnevmotizimda ortiqcha bosim hosil qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ventilyator aylanish tezligini chastota o‘zgartirgich yordamida o‘zgartirish taklif etildi. Chastota o‘zgartirgich orqali ventilyator aylanish chastotasini kamaytirish, drossel yopilishi natijasida hosil bo‘lgan qarshilik oshishini kompensatsiya qiladi va pnevmotizimda stabil havo sarfi va bosimini saqlab turishga yordam beradi.

Havo sarfining ventilyator aylanish chastotasiga bog‘liqligi quyidagicha bo‘ladi:

$$Q = k_Q \cdot n \quad (22)$$

bu yerda: Q – havo sarfi; k_Q – proporsionallik koeffitsiyenti; n – ventilyator aylanish chastotasi.

Havo bosimining ventilyator aylanish chastotasiga bog‘liqligi:


$$P = k_p \cdot n^2 \quad (23)$$

bu yerda: P – havo bosimi; k_p – proporsionallik koeffitsiyenti; n – ventilyator aylanish chastotasi.

Elektromotor quvvatining ventilyator aylanish chastotasiga bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi:

$$N = k_N \cdot n^3 \quad (24)$$


bu yerda: N – elektromotor iste‘mol quvvati; k_N – proporsionallik koeffitsiyenti; n – ventilyator aylanish chastotasi.



9-rasm. Havo sarfi va bosimini ventilyator aylanish chastotasiga bog‘liqlik grafigi

(22), (23), (24) tenglamalardan foydalanib, grafiklar qurildi (9-, 10-rasmlar).

10-rasm. Elektromotor iste‘mol quvvatini ventilyator aylanish chastotasiga bog‘liqlik grafigi




Chastota o‘zgartirgichni qo‘llashning afzalliklariga energiya sarfini kamaytirish, shovqinni kamaytirish, jihozning ishlash muddatini uzaytirish, boshqarishning aniqroq bo‘lishi kabilar kiradi.

Dissertatsiyaning “**Arrali jinlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar**” deb nomlangan uchinchi bobida tezlatkich parametrlarini optimallashtirish, tezlatkich elektromotori yuklanish tokining ratsional oralig‘ini eksperimental aniqlash, ishchi kamerani ko‘tarish-tushirish mexanizmining parametrlarini tadqiq etish, tolani yechish tizimida havo oqimini boshqarish masalalarining tadqiqi o‘tkazildi.

Tezlatkich diametri d_{tezl} va tezligining n_{tezl} jinlash jarayonidagi parametrlarga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazildi. Sinovlar jarayonida tezlatkichning turli diametrlari d_{tezl} 60 mm va 80 mm bo‘lganida, ularning aylanish chastotalari n_{tezl} 75 va 125 ayl/min da bo‘ldi (11-rasm).


Natijaviy parametrlar sifatida mashinaning tola Π_{tola} (kg arra/h) va chigit Π_{chigit} (kg/h) bo‘yicha unumdorligi, xomashyo valigining zichligi ρ (kg/m³), tolani uzunligi L (mm), nuqson va iflosliklarning massaviy ulushi I (%), chigitning tukdorligi T (%) hamda mexanik shikastlanish darajasi III (%) baholandi (12-rasm).



11-rasm. Tajriba stendi

1 – ta’minlagich; 2 – tezlatkich chastota o’zgartirgichi; 3 – arrali silindr chastota o’zgartirgichi; 4 – tok datchigi; 5 – arrali silindr motori; 6 – arrali silindr uzatmasi; 7 – chigit bunker; 8 – kolosnikli panjara; 9 – tezlatkich uzatmasi; 10 – boshqarish pulti; 11 – tezlatkich

Eng ahamiyatli kiruvchi omillar mashinaning tola bo‘yicha unumdorligi Π_{tola} (kg arra/h), toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushi II (%) va chigitning mexanik shikastlanganligi III (%) bo‘lishi aniqlandi (12-rasm).



12-rasm. Tezlatkichning turli omillari ta’sirida chiquvchi parametrlarning o‘zgarish gistogrammasi

Tezlatkichning tezligi n_{tez} va diametri d_{tez} ning mahsulot sifat ko‘rsatkichlari va ishlab chiqarish unumdorligiga ta’sirini o‘rganish maqsadida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tajribalar 2^2 omilli to‘la omillar matritsasi (TOT) asosida rejalashtirildi. Natijalar matematik regression modellar orqali tahlil qilindi:

$$y_1 = 2,63 + 0,15 x_1 + 0,31 x_2 - 0,07 x_1 x_2 \quad (25)$$


$$y_2 = 1,36 + 0,1 x_1 + 0,04 x_2 + 0,15 x_1 x_2 \quad (26)$$

$$y_3 = 3,39 - 0,28 x_1 - 0,49 x_2 + 0,13 x_1 x_2 \quad (27)$$


Bu yerda: y_1 – mashinaning tola bo‘yicha unumdorligi Π_{tola} , kg arra/h;
 y_2 – toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushi Π , %;
 y_3 – chigitning mexanik shikastlanganligi III , %.

Tajribalar natijalari va grafik tahlillarga asoslanib (13-rasm), tezlatkich diametri $d_{tezl} = 60$ mm bo‘lganda, aylanish chastotasi $n_{tezl} = 125$ ayl/min bo‘lganda optimal deb topildi.


13-rasm. Mashina unumdorligi Π hamda tolaning nuqson va iflosliklar yig‘indisining Π tezlatkich tezligiga n_{tezl} bog‘liqlik grafigi



Xomashyo valigi zichligini nazorat qilish uchun ishchi kamera o‘rtasiga tezlatkich o‘rnatish taklif etilgan. Paxtaning harakati ishchi kamera yon tomonining shaffof materiali orqali kuzatildi (14-rasm).



14-rasm. Xomashyo valigi aylanish markazini aniqlash usuli tasvirlangan sxemalar



15-rasm. Tezlatkichli ishchi kamera sxemasi
 1 – tezlatkich, 2 – kolosnikli panjara, 3 – arrali silindr

Xomashyo valigining aylanish markazini aniqlash maqsadida paxtaning bir qismi qizil rangga bo‘yaladi va jinlash jarayoni videotasvirga olindi. Tahlil natijasida

xomashyo valigining harakati kuzatilib, uning aylanish markazi koordinatalari o'rtacha (-40; -30) mm deb qabul qilindi. Ushbu natijalar asosida tezlatkichni o'rnatish uchun ishchi kamera yon devorlarida markazi (-40; -30) mm bo'lgan teshik ochildi. Tezlatkichli ishchi kameraning ko'rinishi 15-rasmda keltirilgan.


Jinlash jarayonida texnologik parametrlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida xomashyo valigi zichligi va tezlatkich elektromotori yuklanish toki o'rganilgan. Tajribalar 5DP-130 arrali jin mashinalarida amalga oshirilgan. Tajribalar davomida xomashyo valigi zichligi Y (ρ_{xAV} , kg/m³) tezlatkich elektromotorining turli tok kuchlari X (I , A) (1,2 A, 1,5 A va 1,8 A) da o'lchangan (16-rasm).

Tajribalarning matematik tahlili natijasida I-nav va III-nav paxta uchun regression tenglamalar ishlab chiqildi:

$$\text{I-nav paxta uchun: } Y_I = 237X - 35; \quad (28)$$

$$\text{III-nav paxta uchun: } Y_{III} = 246X - 96 \quad (29)$$

Xomashyo valigi zichligining individual qiymatlarini ko'rib chiqilganda, barcha individual o'lchashlar ishonchli zonaga tushganligi aniqlandi. Olingan qiymatlar Smirnov-Grabs, Koxren, Fisher, Styudent mezonlari bo'yicha tekshirildi.



16-rasm. I- va III-navli paxtani ishlashda tezlatkich elektromotori yuklanish tokining ratsional oralig'i grafigi

Tadqiqotlardan ma'lumki, I-nav paxta uchun xomashyo valigining optimal zichligi $\rho_g = 325$ kg/m³, III-nav paxta uchun – $\rho = 290$ kg/m³ ni tashkil qiladi. Ushbu tenglamalar orqali tezlatkich elektromotori yuklanish tokining optimal qiymatlari belgilangan. Ratsional tok qiymatlari I-nav paxta uchun 1,4-1,6 A, III-nav paxta uchun esa 1,5-1,7 A oralig'ida aniqlangan.

